

## OLIV TA'LIMDA O'ZBEK TILI FANINI NOAN'ANAVIY USULDA O'QITISHNING AHAMIYATI

**Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna**

Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [moliya2021@tfi.uz](mailto:moliya2021@tfi.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7748110>

**Annotatsiya:** Mazkur maqola oliy ta'limning o'zga til guruhlarida o'zbek tili fanini noan'anaviy usullarda o'qitilishi masalasiga bag'ishlanadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida kamol toptirish, davlat tiliga hurmat, ehtirom uyg'otish borasida bu fanning o'rni beqiyos. Qolaversa, zamon talabi bilan takomillashib borayotgan axborot texnologiyalarini darslarga tatbiq qilinishining samaradorligi hamisha dolzarb ahamiyat kasb etgan. Shuni inobatga olgan holda maqolaning amaliy ahamiyati nafaqat o'zbek tili fanini o'qitish amaliyotida, balki metodika, matn lingvistikasi, adabiyot kabi o'quv kurslarda ham taklif etilgan metodlardan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, noan'anaviy, bilish, so'z boyligini oshirish, eshitish, gapirish, imlo, mustahkamlash, test, munozara.

### Kirish (Introduction)

O'zbek tili fani oliy ta'limda boshqa tilga ixtisoslashgan guruhlariga bakalavriyatning 1-bosqichida o'qitilishi barchamizga ma'lum. Bunday amaliy mashg'ulotlarni noan'anaviy usulda tashkil etish jarayonida, mustaqil, ijodiy fikrlashga alohida urg'u berish, o'qituvchi yo'llanmasiga asosan, talabalarning o'zi mavzu yuzasidan taqdimotlar tashkil etishi bo'yicha nazoratni kuchaytirish, mantiqiy fikrlashga asoslangan bahs-munozaralarni yo'lga qo'yish, sof o'zbek adabiy tilida gapira olish, suxandonlik, notiqlik san'atidan boxabar bo'lishga qiziqish uyg'ota olish ko'zlangan natija beradi.

### Metodlar (Methods)

Noan'anaviy ta'lim jarayonida faollik talabalar zimmasiga tushishi, axborot texnologiyalarining samarasi borasida ko'plab qizg'in bahs-munozaralar, tadqiqotlar olib borilgani hech kimga sir emas. Negaki bunday o'qitish usuli talabalarga xos va mos bo'lib, mavzuni mushohada qilgan holda yaxshi o'zlashtirishga zamin yaratadi. Qolaversa, ishtiyoq(motivatsiya)ning yuqori darajada bo'lishi, mavzuni yaxshi eslab qolinishi, muloqotga kirishish, mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmasining takomillashishi, o'z-o'zini baholashning o'sishiga yordam beradi.

Ta’kidlash joizki, noan’anaviy o’qitish metodlari mashg’ulotga tayyorgarlik uchun juda ko’p vaqt, izlanish talab etadi. Shuningdek, o’qituvchining o’zi ham yuksak fikrlash qobiliyatiga ega bo’lib, muammolarni hal etishda bilim, malaka va ko’nikmalarga ega bo’lishi lozim. Shu bois bu masaladagi izlanishlar qanchalar ko’p bo’lmasin, innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar bildirilishiga shunchalar ehtiyoj katta.

Natijalar va munozara (Results, and Discussion)

“Kishi boshqa tilda bilimli bo’la oladi, ammo faqat ona tilidagina beqam-u ko’st bo’lishi mumkin. Ona tilini e’zozlashni, qadrlashni va asrashni ma’rifatli millatlardan o’rganing”, - degan edi G’aybullas-Salom [1, 19]. Shunday ekan, chet tillarini puxta o’zlashtirish bilan birga o’zbek adabiy tilida gapirishni ham talab qilinsa, tilimizning sofliqi, mavqeyiga ham putur yetmaydi. Bu borada nafaqat o’zbek tili fanida, balki o’zbek tilida olib borish yo’lga qo’yilgan barcha fanlarda IELTSga qo’yiladigan talablar me’yoriga tayanish ham maqsadga muvofiq. Buning uchun dars ssenariysini “O’ZBEGIM” dasturi asosida tashkillashtirishimiz mumkin:

O’zbek tili – uz

B-ilish – Learning; so’z boyligi (Vocabulary)ni oshirish.

E-shitish – Listening

G-apirish – Speaking

I-mlo – yozish – Writing

M-ustahkamlash – Strengthening yoki Mutolaa – Reading

Namuna sifatida oladigan bo’lsak, Toshkent moliya institutining o’zga til guruhlar uchun mo’ljallangan o’zbek tili fani dasturida birinchi mavzu “O’zbekiston - yagona Vatan” deya nomlanadi. Undan ko’zlangan maqsad:

Og’zaki nutqni o’stirish: Mavzuga oid matnni o’qish, mazmunini to’liq tinglab tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma’nosini izohlash. Vatan haqidagi she’rlardan namunalar yod olish.

Yozma nutqni rivojlantirish: Matndan tayanch so’z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma’lumot yozish.

Grammatika: Orfoepiya qoidalari. O’zbek tilida tovushlar talaffuzi.

Bu maqsadlarga erishish uchun yuqoridagi me’yor asosida darsni quyidagicha tashkil etish o’rinli:

I. Bilish – Learning orqali talabning so’z boyligi (Vocabulary)ni oshirish. “Aqliy hujum” metodi asosida har bir talaba “O’zbekiston” deganda ko’z oldiga nima kelishini bir-birini takrorlamagan holda, O’zbek adabiy tilida ifodalab berishi bilan dars boshlanadi. So’ngra uyda o’qib, o’zlashtirish uchun berilgan darslikdagi matn asosida har bir talabaga O’zbekistondagi mashhur joylar, viloyatlar, ziyoratgohlar, paxta, atlas va hokazo aks ettirilgan suratlar beriladi. Uni izohlab berish asnosida har

bir talaba “O‘zbekiston – yagona Vatan” ekani aks etgan bir umumiy daraxt shoxlarini bunyod etadi.

II. Eshitish – Listening. Vatanparvarlik ruhidagi ovozli matn(rivoyat)ni eshittirib, munosabat bildirish, munozara tashkil etish. Masalan, qadimgi hikoyatlardan “Mate jasorati” [3, 31]:

Turk xalqining zaiflashib qolganidan foydalangan dushman elchi jo‘natib turk xoqoni Matedan uning eng yaxshi ko‘rgan otini, so‘ngra kanizagini so‘rattirdi. Mate kengash chaqirdi. Barcha beklar, lashkarboshilar: “Ot yigitning qanoti, kanizak esa or-nomusi, bermang!” — deganiga qaramasdan, xoqon el osoyishtaligini o‘ylab, ularni berib yubordi. Bu bilan kifoyalanmagan dushman yana bir nima ilinjida elchi yubordi. Ammo bu gal kengash qatnashchilari: “Berib yuboring, baribir, foydalanmayapmiz-ku”, deyishiga qaramay, Mate: “Yo‘q! Bu arzimasa narsa emas”, — deb xalqini jangga boshlaydi va haddidan oshib ketgan yovni tor-mor qiladi.

SAVOL: Dushman uchinchi murojaatida nima so‘ragan edi? (Javob: ikkala mamlakat o‘rtasidagi tashlandiq yerni).

III. Gapirish – Speaking. “Grammatika: Orfoepiya qoidalari. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi” mavzusi biriktirilgan mas‘ul talaba yoki o‘qituvchi tomonidan taqdimot asosida tushuntirib, mustahkamlash uchun savol-javob o‘tkaziladi.

IV. Imlo – yozish – Writing. Noto‘g‘ri talaffuz bilan bog‘liq so‘zlar imlosi ustida ishlanadi.

Topshiriq. Quyidagi misollardagi so‘zlar tarkibida ro‘y bergan nutq tovushlarini talaffuzda o‘zgarish qonuniyatlariga ko‘ra izohlang. Xato yozilgan so‘zlarni imlo qoidasiga muvofiq holda daftaringizga ko‘chiring.

I. Avhol, dayra, turpoq, istadion, ustol, sahodat, g‘ish, ta’sirot, broq, go‘sh, oxshom, na’lat, tralebus, ketti, tiraktr, direktir, so‘ssiz, paryot, aynalayin, uchti, damaz, taxsimot, kitop, istakon, hukum, kamyuter.

II. 1. To‘yxonaga savzi to‘rg‘agani chiqdik. 2. Bir borakan, bir yo‘g‘akan, qadim zamonda bir chol minan kampir bo‘lganakan. 3. Cho‘nchagimga yus so‘m solib, ko‘chaga chiqtim. 4. Devol ustida muchicha turipti. 5. Maxsadingga yetolgan bo‘lsang, vaxtingni bekor sarflamay kitop o‘qi. 6. U so‘ssiz tashqariga chiqip ketti [2, 55].

V. Mustahkamlash – Strengthening. Test nazorati.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Amaliy mashg‘ulotda, albatta, mavzu doirasidan chetlashmagan holda asosiy e’tibor mantiqiy fikrlash, munozara tashkil qilishga doir topshiriqlar ustida ishlashga qaratiladi. Bu borada quyidagilar doimiy talab sifatida inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

1) tinglab tushunish bo‘yicha biror munozarali matnni audio shaklida eshittirib, bahs-munozara tashkil etish;

- 2) biror narsani og‘zaki va yozma reklama qilish yoki ayirboshlash;
- 3) lug‘at diktant olish yoki xatoni topish bo‘yichamashq ustida ishlash yoki tezkorlikdagi musobaqa tashkil qilish;
- 4) test.

Mustaqil tafakkur qila olgan, kitob bilan ishlashni bilgan, o‘z tilida aniq, ravon gapira olgani holda xorijiy tillarni ham o‘zlashtira bilgan yoshlardan yuqori saviyadagi ilmiy salohiyatga ega kadrlar, buyuk iqtisodchilar, banker, biznesmenlar, tarjimon, elchilar chiqishi tabiiy. O‘zbekiston yuksalishi uchun ana shunday bilimli, yangicha innovatsion g‘oyalar tashabbuskori kerak. Darhaqiqat, ta’lim sifatini oshirish borasida xorijiy tajribalarni yurtimizga tatbiq etuvchi millatparvar olimlar, pedagoglar, vatanparvar fidoiy insonlar bor ekan, yurtimiz iqtisodiy barqarorlikka erishishi, rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib joy egallashi shubhasiz. Shuning uchun oliygohlarning o‘zga til guruhlarida o‘zbek tili fani o‘qitilishi zamirida ham chuqur mohiyat bor. Ham amaliy, ham nazariy bilim, malaka, ko‘nikmaga ega bo‘lgan, oliy maqsad yo‘lida texnologiyadan unumli foydalanishni biladigan kadr jamiyat uchun hamma sohada ham nihoyatda zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):**

1. Dedaxanova M. Til – qudratli kuch // Sog‘lom avlod uchun. Ilmiy-tarbiyaviy, ommabop jurnal; 06-son, iyun, 2019., B. 17-20.
2. Dedaxanova M., Dadaxonov A. O‘zbek tili fanidan ma’lumotnoma. Qo‘llanma. Toshkent: “Yangi kitob”, 2016. – B. 592.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning I, II, III bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent – «Ilm Ziyo» – 2013 (www.ziyouz.com kutubxonasi).